

SKRIPKA VA G'IJJAK CHOLG'U SOZLARINI KELIB CHIQISH TARIXI

Kenzhebaeva Sabira Saylauovna – dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: skripka, g'ijjak, kamon, lyutna, dasta, harrak, V.Baxman

Ключевые слова: скрипка, гиджак, смычок, лютна, гриф, подставка, В.Бахман

Key words: violin, gidjak, bow, lutna, fingerboard, bridge, V.Baxman

KIRISH. Xalqimiz orasida “G’ijjak oldin paydo bo’lganmi yoki skripka?”, “Ikkalasi ham bir xil cholg’u emasmi?” kabi savollar tez-tez uchraydi. Bayramlar, to’ylar va marosimlar bu cholg’u sozlarining sevimli ijrosisiz o’tmaydi. Har ikkalasining o’ziga xos, bir-biriga o’xshamagan jihatlari mavjud. Shunday ekan mazkur maqola orqali g’ijjak va skripka haqidagi savollarga munosib javob bergan holda qiziqarli ma’lumotlarni yetkazishni muhim deb hisobladik.

Tarixiy manbalarga ko’ra bu ikki cholg’u sozi ham “torli cholg’ular” deya yuritilgan umumiy nom ostida shakllangan. Ularning rivojlanishi bir qator bosqichlarni bosib o’tdi. Birinchi bo’lib qadimiy kamonga o’xshash yoysimon shakldagi yog’ochga ot qili tortilgan cholg’u paydo bo’ldi. Bunda rezonator vazifasini inson og’zi, qavoq hamda toshbaqa kosasi bajargan.

Torli-kamonli cholg’ular eramiz birinchi ming yilligining uchinchi qismida paydo bo’lgan degan taxminlar bor. Bu to’g’rida X asrda Al-Forobiy to’laroq sharhlagan va uning to’rtinchi torini o’zlari taqib, ushbu cholg’uda ijod etganlar. Bu cholg’uning ilk nusxasi toshbaqa kosasidan yasalgan bo’lib, dastasi yog’ochdan, tori esa ot qilidan taqilgan ekan. Xorazmning o’ng va chap qirg’oqlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida qadimgi Xorazm xalqlarining musiqa cholg’ulari tarixiga oid juda qiziqarli tasviriy materiallar topilgan.

1945-1950 yillarda Tuproq-qal’ada olib borilgan qazilmalar (eramizning III-IV asrlari Xorazmning o’ng qirg’og’i) natijasida juda ko’p naqsh bezaklari ichida 3 ta musiqa cholg’ularining obrazi tasvirlanganini ko’rishimiz mumkin. Bular 6 torli kichik burchakli arfa, ikki torli lyutnyasimon cholg’u va qumsoat shaklidagi ikki tomonlama barabandir.

Shunday qilib, yurtimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qoya toshlardagi naqshlar (rasmlar), terrakota (sopol) haykalchalari, mis va kumush idishlarda tasviri tushirilgan cholg’u ushlagan sozandalar, qadimgi davr musiqa madaniyati cholg’ularining rang-barangligidan dalolat beradi. Natijada zarbli,

shovqinli va qisman damli cholg’ular ibtidoiy jamoa davrida ma’lum miqdorda takomillashgan. Avval zarbli, keyin shovqinli, damli va nihoyat torli cholg’ular paydo bo’la boshlagan.

Skripka cholg’usi boshqa torli-kamonli cholg’ular (alt va violonchel) singari ko’plab rivojlanish bosqichlarini bosib o’tdi. O’z navbatida bu rivojlanish jarayonlari turli davrlarning ijtimoiy hayoti, siyosiy o’zgarishlari hamda musiqa madaniyati bilan uzviy bog’liq edi. Kamonli cholg’ularning kelib chiqishi uzoq tarixga borib qadaladi. Skripkaning tarixini Yevropa xalqlarining cholg’u madaniyati topilmalaridan o’rganish maqsadlidir. Sababi, skripka professional cholg’u asbob sifatida aynan Yevropada ommalashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Insoniyat yog’och tolalar tovushini eshitishni boshlagan davrda musiqaga asos solingan degan taxminlar mavjud. Dastavval cholg’u sozlarini yaratish uchun hayvon suyaklarida kamon yasalgan. Ko’plab izlanuvchilar, shu jumladan, V.Baxman kamonli cholg’ularning kelib chiqishini uzoq davrlarga borib taqalishini aytib o’tadi. Yana boshqa bir fakt, fransuz cholg’ushunos olimi Garno hujjatlar asosida shuni ko’rsatadiki, VI asrlardayoq Gallarda torli-kamonli cholg’ular mavjud bo’lgan.

Skripka (slavyancha skri – g’ijirlamoq) – torli kamonli musiqa cholg’u asbobi. Skripkasimon cholg’u asboblari orasida (S, alt, violonchel, kontrabas) yetakchi, eng baland registrli soz. 4 ta tori kvinta intervali bo’yicha sozlanadi. Diapazoni 4 oktavadan oshiq. Umumiy uzunligi – 600 mm. Skripkaning klassik shakli XV-XVI asrlarda Italiya va Fransiyada yuzaga kelgan. XVII-XVIII asrlarda Shimoliy Italiya, ayniqsa, Kremona ustalari N.Amati, J.Gvarneri, A.Stradivari va boshqalar Skripkaning mukammal namunalarini yaratishgan[1.231].

Skripkadan qolishmaydigan, unga yaqin bo’lgan kvinta intervaliga sozlanadigan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarida o’z aksini topgan musiqa cholg’ularidan biri “G’ijjak” sozidir.

G'ijjak – torli-kamonli musiqa cholg'usi bo'lib, Sharq xalqlarida keng tarqalgan. Uni "G'ipchak" nomi bilan Forobiy yaratgan. Ibn Sino daslabki ikki torini kvartaga sozlagan. Qulmuhammad Udiy esa "G'ijjak"ka uchin torga qo'shgan. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida aytilishicha, "G'ijjak"ni chala bilish saroy sodanlari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan[2.672].

G'ijjak o'tirib chalinadigan sozlardan biri. G'ijjak qobiqchasining pastki qirrası tizzaga o'rnatiladi. G'ijjak sozi o'zining texnikasi, chalish usullari jihatidan kamonchalik guruhidan deyarli farq qilmaydi.

Ulug' ajdodlarimiz musiqaning ilohiy qudratini, musiqasiz komil va fozil insonlar shaxsini voyaga yetkazib bo'lmasligini chuqur anglab yetganlar. Ularning orasida musiqa sohasining katta bilimdonlari va musiqa nazariyotchilari anchagina [3.32]. Shulardan biri, yaqin va O'rta Sharq musiqa madaniyatining yirik arbobi, birinchi musiqa nazariyotchisi Abu Nasr Forobiyning fikricha, Markaziy Osiyo musiqashunoslik ilmi uzoq tarixga ega ekanligi va bu soxa inson nutqining shakllanish jarayoni va xissiyotlari bilan bevosita bog'liqdir.

Forobiy merosi bilan shug'ullanuvchi bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, keyinchalik uning "Katta musiqa kitobi"ga kirgan ilk qomusiy asarlaridan birining musiqa haqidagi bo'limi Buxoroda yozilgan deb topilmoqda [4.44].

Forobiyning "Katta musiqa kitobi"da faqat musiqa nazariyasi va tarixi bayon etilmay, Sharqda ma'lum bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, g'ijjak, nay kabi musiqa asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti ham berilgan. Shuningdek, adabiyotshunos olim Natan Mallayev ham qadimiy qo'lyozmalarga tayangan holda o'zining madaniyat tarixiga oid asarlarida X-XII asrlarda tanbur, rubob, g'ijjak, ko's nog'ora, qo'biz, nay, surnay, karnay, qonun kabi torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u sozlari o'lkamizda keng tarqalganligini aytib o'tadi. [5.60] Shimoliy Polsha hududidagi slavyanlarda XI asrda kamonli cholg'ularning mavjud bo'lgani arxeologik izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldi. Kavkaz, Armaniston hududlarida mavjud bo'lgan torli-kamonli cholg'u sozlari yelkaga qo'yib ijro etilgan. Shu va shunga o'xshash faktlar etnografiya nazariyasida "madaniyat o'choqlari" nomi bilan kiritilgan va madaniyat tarixida cholg'u asboblarning qanchalik muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatib beradi.

Yana bir muhim ma'lumot arab xalqlari va basklarning Kavkazdan Ispaniyaga ko'chib o'tishi

bilan bog'liq. Arab xalqlari Ispaniyaga ko'chib o'tganlariga qaramay arab musiqasi va intonatsiyasi Yevropa bo'ylab tarqalmadi. O'z cholg'u soziga va musiqa yo'liga ega bo'lgan Ispaniya arab musiqasini o'ziga qabul qilmadi, arab xalq cholg'ulari Yevropa bo'ylab yoyilmadi. Bu shundan dalolat berardiki, har bir xalq, har bir millat o'z musiqasining tarixi va ildizini o'zgartirmagan holda xalqona madaniyatini saqlashga intilgan. Shu sababdan xalqlarning cholg'u ijrochilik tarixi haqidagi ma'lumotlarni o'zga yerdan izlashga ehtiyoj bo'lmagan. Tovush hosil qilish uslubi, yuqorida aytib o'tilganidek, qadimiy qurol-kamondan tovush chiqishi deyarli barcha xalqlarda bir xilda keng tarqalgan. Ijro etish uslubi esa harbir xalqning o'z sharoitidan kelib chiqqan holda adaptatsiyaga uchragan.

NATIJALAR

Kamonli cholg'ular ko'p asrlik rivojlanish davri mobaynida dunyoning turli xalqlarida turli shakl va o'lchamlarda mavjud bo'lib keldi. Ularning har biri o'ziga xosligi, ijro uslubi, tovush hosil qilish xususiyatlari bilan ajralib turadi va albatta o'z ahamiyatiga egadir. Shu bilan bir qatorda tarixiy an'analarga boy Sharq musiqasi bilan jozibador Yevropa musiqa madaniyati o'rtasidagi farqdan kelib chiqib, ularning cholg'u madaniyati hamda ijro imkoniyatlarining qay darajada rang-barang va keng qamrovli ekanligini ko'rish mumkin.

Klassik tipdagi skripkalar ko'rinishi Yevropada o'rta asrlar uyg'onish davrida torli-kamonli cholg'ularning ko'payishi bilan kelib chiqdi. Faqatgina cholg'uning tuzilishi emas, balki tovush sifati, ovoz o'tkirligi, intonatsiya erkinligi va sozlash tizimi ham juda muhim ahamiyatga ega edi.

XVIII asr Italiya musiqa (skripka) san'atining yirik namoyandasi, musiqiy ijroga yangi dramatik yo'nalish olib kirolgan buyuk iste'dod egasi Antonio Vivaldidir. Vivaldining musiqaga qiziqishiga, shubhasiz otasi sababchi bo'lgan. Uning ilk ustozı ham otasi Jovanni bo'lganini taxmin qilish mumkin, zero Antonio aynan qaysi musiqachining qo'lida saboq olgani haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Tinmay izlanib, bir-biridan go'zal kuylar yaratgan Antonio tez orada musiqa ixlosmandlarining mehrini qozondi. 1703-1711 yillar oralig'ida Vivaldi yaratgan trisonatalar, skripka uchun sonatalar va ayniqsa, "Lestro armoniso" ("Ilxom garmoniyasi") nomi ostidagi 12 konsertdan iborat turkum tinglovchilar tomonidan zo'r olqishlar bilan kutib olinadi. Vivaldining shuxrat qozonishiga Venesiyaning Yevropa madaniyatida

tutgan katta mavqei ham sabab bo'ldi, deyishga asos bor.

Manbalarda Forobiyni mohir sozanda ekanligi haqida ham ma'lumotlar berilgan. "Ziynat al majoliy"dan Forobiyning qanchalik mohir sozanda ekanligini ko'rsatuvchi ushbu parchani keltirish o'rinlidir. "Forobiy bir soat chamasi o'tirgandan so'ng, Ray shahar vaziri Sohib Obbod sharafiga ziyofat boshlanadi. Shunda u yonidan o'zi kashf etgan bir musiqa sozini olib, o'zi yasagan sozda kuylarni mahorat bilan ijro etadi. Ko'rinishidan kichik qovoqqa o'xshagan bu sozni "g'ipchak" deb atagan"[6,175].

MUHOKAMA

G'ijjak cholg'usi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, taniqli hofiz va ustoz san'atkor Shorahim Shoumarov (1876-1958) o'zbek xalq cholg'ularini ijrochilik talab darajasiga moslashtirish tashabbusi bilan chiqqan ilk sozanda tomonidan modernizatsiyalash jarayonlarini boshidan o'tkazdi. O'zbekiston davlat konservatoriyasi laboratoriyasida o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirish jarayonida u aynan g'ijjaklarning kosasini har xil xom ashyodan, ya'ni kokos yong'og'idan, qovoqdan, misdan va yog'ochdan turli shakllarda yasadi. Jonli ijro orqali ularning ovoz tarovatlarini tinglab ko'rildi hamda bir-biriga qiyoslanishi natijasida kosasi yog'ochdan yasalgan cholg'u maqsadga muvofiq, deb topildi.

So'ngra yog'ochdan yasalgan g'ijjak kosasining shakli bo'yicha izlanishlar olib borildi. Natijada Sh.Shoumarov tomonidan bir qator turli shakldagi kosasi cho'zinchoq va orqa qismida quyosh shakli mavjud, kosasi 8 qirrali hamda kosasi dumaloq g'ijjaklar yasaldi, ularning ovoz tarovati va tembr xususiyatlari tekshirildi. So'ngra barcha tajribaviy cholg'ular orasidan kosasi tut daraxtidan yarim shar shaklida o'yima ravishda yasalgan g'ijjak tanlab olindi, chunki undan taralayotgan ohang eng yoqimlisi bo'lib, g'ijjak tembriga mos edi.

Skripka va g'ijjak o'rtasidagi o'xshashliklar. Bu ikki cholg'u insonni hayratga soluvchi, nozik, juda yoqimli va o'zgacha cholg'u sozlaridir. Skripka va g'ijjakni bejizga musiqaning qirolichasi deyishmaydi. Haqiqatdan ham ularning go'zal ovozi inson ovozi singari goh muloyim, goh qalin bo'la oladi. Skripka va g'ijjakda ijro etilishi mumkin bo'lgan baland pardalarni dunyoning hech bir vokalisti kuylab berolmaydi. Skripka va g'ijjak qaysidir jihatlari bilan odamning qomatini eslatadi. Uning ayrim qismlarining nomi ham buni tasdiqlaydi. Burmali bosh, bo'yin, qomat kabilar shular jumlasidandir.

Chap qo'l barmoqlari yugurib yuradigan uzun taxtacha – grif deb ataladi. Yuqorida kichik balandlik bo'lib, u simlarning bir-biriga xalaqit bermasligini ta'minlaydi va simlarni grifdan biroz ko'tarib turadi. Uning nomi – ostonadir.

Har ikki cholg'uning 4 ta simi bo'lib, ular "sol", "re", "lya", "mi" simlarini tashkil etadi.

1- ingichka, jarangli, sal tegilsa ovoz chiqaraveradi. Bu "mi" simidir.

2- sal yo'g'onroq, o'g'il bolalar ovozi eslatadi. Bu "lya" simidir.

3- yanada yo'g'onroq, ovozi ham salobatli. Bu "re" simidir.

4- eng yo'g'on sim, ovozi yoqimli, shirali, o'g'il bola ovozi tasvirlaydi. Bu "sol" simidir. Simlar yuqori tarafdin 4 ta quloqlar yordamida tortiladi, pastki tarafdin ularni kichkina grif tutib turadi. Tugmacha esa ularni yana ham mustahkam ushlashni ta'minlaydi.

Skripka va g'ijjak o'rtasidagi farqli jihatlari.

Skripkaning barcha qismlari uning yuqori qopqog'ida joylashgan bo'ladi, unga parallel ravishda pastki qopqoq joylashadi. Bu ikki qopqoqning chetlarida ingichka chiziq tortilgan, bular mo'ylovlar deyiladi. Yuqori qopqoqda lotincha F harfi shaklida yoriqlar o'yilgan. Nomi ham "ef" lardir. Eflarning o'rtasida simlarni tik ushlab turuvchi tirgak-harrak o'rnatilgan. G'ijjakda esa aksincha, bularning barchasi kosachada joylashadi.

O'ng tarafdagi ef yorig'idan skripka ichiga qaraganda, u yerda yuqori va pastki qopqoqqa tiralgan tayoqchani ko'rish. Bu tayoqcha skripkaning "yuragi" hisoblanadi. G'ijjakda bunday qism yo'q bo'lib, kosacha ichi faqat ovoz chiqaruvchi bo'shliqdan iborat bo'ladi.

Skripkani chalgan vaqtda iyak-tagiga suyanadi. G'ijjak esa tizzaga tiralgan holda ijro etiladi. Kamon – tuzilishi jihatdan ancha oddiy, skripkani va g'ijjakni ijro etishning asosiy vositasidir. Uning asosiy qismi – dastasidir. Dasta noyob fernambuk daraxtidan tayyorlanadi. Asosiy xususiyati – taranglik, elastiklik. Kamon sim ustida qulay joylashib yotishi va kerak payti yengil, quvnoq sakrashi kerak. Dastaga vint yordami bilan qolip birlashtirilgan. Vint orqali sochlar tortiladi (asosan oq sochlar). Har ikkala cholg'u uchun kamon birdek xizmat qiladi.

XULOSA

Qisqacha xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, skripka va g'ijjak asboblari eng nozik, eng nafis va inson qalbiga eng yaqin turuvchi jozibador cholg'u sozlaridir. Ularning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivoj topishi musiqa hayotida naqadar ahamiyatli edi. Skripka va g'ijjakning ajdod cholg'ulari, dastlabki

ko‘rinishlaridan to hozirgi holatga kelguniga qadar ko‘plab qiyinchiliklar va katta bosqichlar bosib o‘tildi. Torli-kamonli cholg‘ular tarixida O‘rta Osiyo mamlakatlarining ham o‘ziga xos o‘rni bo‘lishiga qaramay skripkaning vatani sifatida Yevropa mamlakatlari tan olindi. Yevropaning mohir cholg‘u ustalari tomonidan skripkaning yanada yangi, yanada qulay ko‘rinishlari kashf qilindi. Tovush hosil qilishning o‘ziga xos uslublari yaratildi, ko‘plab mohir

kompozitorlar tomonidan skripka cholg‘usi uchun dunyo tan olgan asarlar yaratildi, jahonning virtuoz skripkachilari tomonidan bu asarlar ijro qilindi. Milliy cholg‘u sozimiz hisoblangan g‘ijjak ham O‘rta Osiyo mohir ustalari tomonidan takomillashtirib kelindi. Hozirgi kunda har ikkala cholg‘u sozi birdek ahamiyatli bo‘lsa-da, ular alohida alohida so‘z ekani, kelib chiqish jihatidan skripka qadimiyroq, g‘ijjak esa yosh navqiron ekanini ta’kidlash o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. 11-tom. – B. 231.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. 7-tom. – B. 672.
3. Qambarov A.A., Ro‘zmatzoda Q. Milliy musiqa va ma’naviy kamolot. Guliston jurnali. № 2. 1996. –B. 32
4. Matyoqubov O. Maqomat. –Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2004. – B. 44.
5. Qambarov A.A., Mannopov S., Najmetdinova M.M. O‘zbek san’ati tarixi. Farg‘ona nashriyoti. 2021. – B. 60.
6. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. – Toshkent: 1963. – B. 175.

REZYUME. Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘u sozi hisoblangan g‘ijjak hamda Yevropa klassik cholg‘usi hisoblangan skripka asbobi o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqli tomonlar, ularning kelib chiqishi, ijro imkoniyatlari va ovoz o‘zgarishlari ilmiy faktlar yordamida yoritiladi.

РЕЗИОМЕ. В данной статье на основе научных фактов будут освещены сходства и различия между гижжака который является узбекским национальным инструментом и скрипки которая является европейским классическим музыкальным инструментом.

SUMMARY. In this article, based on scientific sources, the similarities and differences between Gijjak which is Uzbek national musical instrument and Violin which is European classical instrument will be covered.

VOKAL SAN’ATI TARIXI, TURLARI VA ZAMONAVIY TARAQQIYOTI

Nurnazar Qallibekov Pirnazarovich – dotsent

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: vokal san’ati, musiqa san’ati, janrlar, vokal tarixi, zamonaviy vokal.

Ключевые слова: вокальное искусство, музыкальное искусство, жанры, история вокала, современный вокал.

Key words: vocal art, musical art, genres, vocal history, modern vocal.

Vokal san’ati inson ovozineng eng yuksak darajada san’atga aylanishi bo‘lib, uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Insoniyat tarixida vokal san’ati dastlab diniy va marosimiy an’analar bilan bog‘liq holda rivojlangan. Qadimgi sivilizatsiyalar, xususan, Misr, Yunoniston va Rim imperiyalarida vokal ijrochilik turli diniy va marosimiy tadbirlarda asosiy ifoda vositasi sifatida qo‘llanilgan. O‘rta asrlarga kelib esa, vokal san’ati cherkov musiqasi va diniy qo‘shiqlar orqali yanada rivojlanib, gregorian xorlari kabi murakkab shakllarni yaratdi.

Uyg‘onish davrida esa vokal san’ati yangi bosqichga ko‘tarilib, opera janri shakllandi va rivojlandi. Barokko va klassik davrlarda vokal ijrochiligi texnik jihatdan yanada rivojlanib, murakkab bezaklarga ega bo‘lgan asarlar yaratildi. XIX asrda romantizm ta’siri ostida vokal san’ati yanada hissiy va dramatik ifodaga ega bo‘ldi. XX asr va undan keyingi davrlarda esa vokal san’ati turli janrlar, jumladan, jazz, blues, pop, rock va elektron musiqa bilan uyg‘unlashib, global musiqiy maydonda keng tarqaldi.